

O'ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI O'ZARO IQTISODIY HAMKORLIGINING HUQUQIY ASOSLARI

Toshmurodova Charos Rustamjonovna
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Tabiiy fanlar fakulteti
Geografiya o'qitish metodikasi yo'nalishi
4-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: S.K Djumabayeva

Annotatsiya: *O'zbekiston suveren davlat sifatida jahon mamlakatlari bilan har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va jahon iqtisodiyotiga chuqurroq kirib borishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bunda, o'z navbatida davlat tashqi iqtisodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda uning huquqiy jihatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorlik aloqalari haqida so'z boradi.*

Аннотация: *Узбекистан как суверенное государство уделяет особое внимание развитию всестороннего сотрудничества со странами мира и более глубокому проникновению в мировую экономику. При этом, в свою очередь, ее правовые аспекты имеют большое значение в становлении и развитии внешнеэкономической деятельности государства. В данной статье говорится о взаимном сотрудничестве между Узбекистаном и странами Центральной Азии.*

Abstract: *As a sovereign state, Uzbekistan is paying special attention to the development of comprehensive cooperation with the countries of the world and deeper penetration into the world economy. In this, in turn, its legal aspects are of great importance in the formation and development of the foreign economic activity of the state. This article talks about mutual cooperation between Uzbekistan and Central Asian countries.*

Kalit so'zlar. *Islohot, ijtimoiy, iqtisodiy, tashqi siyosat, hamkorlik, diplomatik, xavfsizlik, tashkilot.*

Ключевые слова: *реформа, социальная, экономическая, внешняя политика, сотрудничество, дипломатия, безопасность, организация.*

Key words: *Reform, social, economic, foreign policy, cooperation, diplomatic, security, organization*

Sobiq Ittifoq davrida tashqi dunyodan ajratib qo'yilgan mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq hukumat tomonidan tashqi iqtisodiy majmuani shakllantirishga katta e'tibor qaratildi. O'tgan davr mobaynida mamlakatimiz jahon hamjamiyatining teng huquqli subyektiga aylandi, uni dunyoning ko'pgina davlatlari tan

oldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 17-moddasida mamlakatda tashqi siyosat olib borishning asosiy tamoyillari o'z aksini topgan bo'lib, unda "O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi" deb ko'rsatilgan.

Ayni chog'da quyidagilar tashqi siyosatning eng muhim yo'nalishlari sifatida belgilandi:

- a) Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash;
- b) ko'p yillar cho'zilib kelayotgan, natijada giyohvand moddalar, xalqaro terrorchilik, qurollarning noqonuniy tarqalishi xavfi saqlanib qolayotgan afg'on muammosini hal qilish;
- v) O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi.

Mamlakat tashqi siyosatining ustuvor sohalaridan biri tashqi iqtisodiy siyosat hisoblanadi. Mazkur sohada tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish va tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni muhim o'rin egallaydi. Qonunda uning maqsad va vazifalari, tashqi iqtisodiy faoliyat tushunchasi, asosiy tamoyillari va yo'nalishlari kabilar belgilab qo'yilgan. Jumladan, Qonunning 3-moddasida tashqi iqtisodiy faoliyat, bu O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlar yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro manfaatli iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati deb ta'kidlangan. Shu bilan birga, uning 9-moddasida tashqi iqtisodiy faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan:

xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;

tashqi savdo faoliyati;

xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi investitsion faoliyat.

Yuqoridagi Qonun hujjatdan tashqari tashqi iqtisodiy faoliyat sohasiga doir qator qonunlar, qarorlar, farmon va farmoyishlar qabul qilingan. Ular orasida O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari to'g'risida" (22.12.1995 y.), "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida" (25.04.1996 y.), "Bojxona tarifi to'g'risida" (29.08.1997 y.), "Xorijiy investitsiyalar to'g'risida" (30.04.1998 y.), "Investitsiya faoliyati to'g'risida" (24.12.1998 y.), "Eksport nazorati to'g'risida"gi (26.08.2004 y.) Qonunlari, Prezidentning "O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va himoya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" (24.07.1992 y.), "Eksport-import operatsiyalarini tartibga solishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" (11.04.1995 y.), "O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish to'g'risida" (19.07.1995 y.), "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga beriladigan qo'shimcha rag'bat va imtiyozlar to'g'risida" (30.11.1996 y.), "Xorijiy

investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksportini rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" (26.08.1997 y.), "Tovarlar (ish, xizmatlar) eksportini rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" (10.10.1997 y.), "Import operatsiyalarini tartibga solishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" (18.02.1998 y.), "Xususiy bevosita xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" (11.04.2005 y.), "Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida" (21.07.2005 y.)gi farmonlari va boshqalar muhim ahamiyatga molikdir.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan islohotlar natijasida uning chet davlatlar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi kengaymoqda, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi kuchaymoqda. Bunda quyidagilarni alohida qayd etish lozim:

*Hozirda O'zbekistonni dunyoning 165 ta davlati tan oldi (1992 yilda 125 ta);

*Dunyoning 120 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan (1992 yilda 66 ta);

*Jahonning 140 dan ortiq davlati bilan savdo-iqtisodiy munosabatlar o'rnatilgan;

*Dunyoning 80 mamlakatiga O'zbekistonning tovar va xizmatlari eksport qilinadi;

*Toshkentda 35 ta davlat o'z elchixonalarini ochdi;

*Respublikada 88 ta xorijiy vakolatxonalar akkreditatsiya qilingan, 24 ta hukumatlararo va 13 ta nohukumat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda;

*Mamlakat 65 dan ortiq nufuzli xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar faoliyatida ishtirok etmoqda va h.k.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi, o'z davlatchiligini barpo etishi, hozirgi murakkab va notinch dunyoda mustaqilligini mustahkamlashi darkor. Shu munosabat bilan barqarorlik va davlat xavfsizligining kafolatini ta'minlash juda muhim hisoblanadi va ular ular quyidagilardan iborat:

Birinchi. O'zbekiston jahon hamjamiyatida, davlatlararo xavfsizlik tizimida o'z o'rnini topishi (YeXHT, BMTda ishtirok etishi) darkor.

Ikkinchi. Samarali siyosiy makon hosil qiluvchi mustahkam davlatlararo bitimlar tizimini yaratish.

Uchinchi. Tuzilgan davlatlararo bitimlarga og'ishmay rioya qilish.

To'rtinchi. Tashqi siyosatni mafkuralashtirishdan to'liq voz kechish.

Beshinchi. O'zbekiston qo'shilmaslik harakati a'zosi sifatida hech qanday bloklarga kirmasligi.

Oltinchi. O'zbekistonning kollektiv xavfsizlik tizimida ishtirok etishi.

Yettinchi. Eng yaqin qo'shnilarimiz – Markaziy Osiyodagi davlatlar bilan har tomonlama jips hamkorlik qilish.

Sakkizinchi. Armiyamiz, qurolli Kuchlarimiz, harbiy doktrinamiz.

To'qqizinchi. Jamiyatning ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-ahloqiy, madaniy va tarixiy ildizlariga tayanish.

O'zbekistonning xorijiy davlatlar bilan aloqalarini mustahkamlashda olib borilayotgan diplomatik munosabatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz milliy davlatchiligi rivojlanishida uzoq tarixiy, diplomatik aloqalar tajribasiga ega. Buni buyuk Sohibqiron Amir Temurning faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari uzoq tarixiy taraqqiyot davomida goh u, goh bu davlat tuzilmalari – Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So'g'd, Ahmoniylar saltanati, Aleksandr Makedonskiy imperiyasi, Salavkiylar, Kushon podsholigi, Turk hoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Arab xalifaligi, Xorazmshohlar, Chingizxon, Amir Temur imperiyasi, Shayboniylar hukmronligi, Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari, Rossiya imperiyasi, SSSR tarkibida bo'lgan.

Mustaqil davlatlar sifatida O'zbekiston va Qozog'iston orasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 23 oktabrda o'rnatilgan. 1991 yildan buyon oliy darajadagi 9 ta tashrif sodir bo'ldi. Shundan O'zbekistonga 4 ta tashrif – 1994, 1998 yillarda va 2006 yilda 2 marta hamda Qozog'istonga 5 ta tashrif (1997, 2001, 2002, 2006, 2008 yy.) amalga oshirildi [1].

Hozirgi paytgacha O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasida 116 dan ortiq ikki tomonlama shartnomalar imzolangan bo'lib, ular ikki davlatning turli sohalardagi aloqalarini tartibga solishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlarning madaniy-gumanitar sohasidagi hamkorligi 1998 yil 31 oktabrda qabul qilingan Abadiy Do'stlik to'g'risidagi shartnoma, shuningdek 1994 yil 10 yanvardagi Madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, maorif, turizm va sport sohasida hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi hamda 2006 yil 20 martdagi Fan va texnologiyalar sohasida hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo kelishuvlar orqali amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasida 1993 yilning 16 fevralida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. Ikki davlat orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasida 1996 yil 24 dekabrda imzolangan Abadiy Do'stlik to'g'risidagi shartnoma hisoblanadi. Hozirga qadar mazkur davlatlar orasida ikki tomonlama xarakterga ega bo'lgan 213 dan ortiq hujjatlar imzolangan. 1994 yil 16 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi rasmiy delegatsiya amaliy tashrif bilan Bishkekda bo'ldi. Hukumatlararo o'zbek-qirg'iz qo'shma komissiyasi 1996 yildan faoliyat ko'rsatmoqda. Bundan tashqari madaniy-gumanitar sohada hamkorlik 1994 yil 16 yanvarda qabul qilingan Madaniyat, sog'liqni saqlash, fan, maorif, turizm va sport sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risidagi hukumatlararo shartnoma, shuningdek 1996 yil 24 dekabrda imzolangan Madaniy hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo shartnomalar asosida amalga oshirilmoqda. 2007-

2011 yillarda iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar hamkorlik to'rtisidagi shartnoma va dastur ham aloqalar rivojiga kuchli turtki beradi.

O'zbekiston va Tojikiston Respublikalari o'rtasida 1992 yilning 20 oktabrida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. 1998 yilda O'zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston Respublikasi o'rtasida har tomonlama hamkorlik to'g'risida uch tomonlama Deklaratsiya imzolandi.

Ikkala davlat o'rtasida 1991 yildan boshlab hozirga qadar ikki tomonlama xarakterdagi 155 dan ortiq hujjat imzolangan bo'lib, ularning eng asosiysi – 2000 yil 15 iyunda Dushanbe shahrida imzolangan Abadiy Do'stlik to'g'risidagi shartnoma o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston va Turkmaniston Respublikalari o'rtasidagi o'zaro diplomatik munosabatlar 1993 yil 7 yanvarda o'rnatildi. 1991 yildan hozirgi vaqtgacha oliy darajadagi 6 ta, jumladan O'zbekistonga 3 ta (1996, 2004, 2008 yy.) va Turkmanistonga 3 ta (1996, 2000 va 2007 yy.) tashrif amalga oshirildi. Bundan tashqari, O'zbekiston va Turkmaniston hukumatlari rahbarlari va a'zolari darajasida tashqi siyosiy va mudofaa idoralari rahbarlarini o'z ichiga olgan aloqalar qo'llab-quvvatlanmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Turkmaniston Respublikasi Prezidenti 2007 yil 9 iyunda Sankt-Peterburg shahrida o'tgan MDHning norasmiy sammiti doirasidagi uchrashuvi ikki tomonlama munosabatlarni jonlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017 yil 18-19 oktabrda Turkmanistonga Davlat tashrifini tashkil qilishga kelishib olindi. Natijada, hamkorlikning turli sohalarida qator muhim hujjatlar imzolanishga erishildi. Mazkur tashrif siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalarda ikki tomonlama munosabatlarni faollashtirishga turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil oktabr oyida Turkmanistonga davlat tashrifi mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tardi. Ashxoboddagi uchrashuvlar chog'ida O'zbekiston-Turkmaniston aloqalariga doir barcha masalalar atroflicha muhokama qilinib, istiqbol rejaları belgilab olindi. Munosabatlarni kengaytirishning yangi imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Kelishuvlarning amaliy natijasi o'laroq, Do'stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risidagi davlatlararo shartnoma hamda Iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi davlatlararo shartnoma imzolandi. Bu hujjatlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik aloqalarini sifat jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Ashxobod sammitida o'zaro aloqalarni rivojlantirish maqsadida shartnomaviy-huquqiy poydevorni yanada takomillashtirishga, tomonlarni qiziqtirgan masalalar yuzasidan muntazam maslahatlashuvlarni yo'lga qo'yishga kelishib olindi. Prezidentlarning Qo'shma bayonotida takidlanganidek, O'zbekiston va Turkmaniston xalqaro tashkilotlar doirasida ham sa'y-harakatlarini o'zaro muvofiqlashtirib boradi. Terrorizm, ekstremizm,

narkotrafik, transmilliy uyushgan jinoyatchilik kabi tahdidlarga qarshi kurash borasida ham o'zaro hamkorlik o'rnatilgan.

Turkmaniston poytaxtida o'tgan oliy darajadagi uchrashuvda Sh.Mirziyoyev va Gurbanguli Berdimuhammedov savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish borasida ikki tomon ham katta salohiyatga ega ekanligini ta'kidlab, uni to'la ishga solish uchun savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlik bo'yicha O'zbekiston-Turkmaniston qo'shma komissiyasi ishini faollashtirishga kelishib oldilar. Ayniqsa, yoqilg'i-energetika majmui, transport-kommunikatsiya infratuzilmasi, energiya manbalarining tranziti, suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi sohalar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Prezident Sh.Mirziyoyev tashrifi chog'ida 2018-2020 yillarga mo'ljallangan madaniy-gumanitar hamkorlik dasturi ham qabul qilindi. Unda hamkorlikda madaniy-gumanitar tadbirlar tashkil qilish, milliy-madaniy merosni tiklash va saqlash borasida tegishli idoralarning aloqalarini rivojlantirish nazarda tutilgan. Ushbu hujjatga asosan ilm-fan, madaniyat va san'at, ta'lim, arxiv ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar o'rtasida hamkorlik mustahkamlanadi. Ijodkor va tadqiqotchilarning muloqotlari uchun yangi imkoniyatlar yaratiladi.

Shuningdek, 2018 yilning 10-11 martida Turkmaniston Respublikasi Prezidenti G.Berdimuxamedovning O'zbekistonga Davlat tashrifi ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda ikki tomonlama xarakterdagi muhim hujjatlar qabul qilindi.

Hozirga qadar O'zbekiston va Turkmaniston orasida 100 dan ortiq ikki tomonlama hujjatlar imzolangan bo'lib, ular o'zaro hamkorlikning turli sohalarini muvofiqlashtirishga qaratilgan. 1996 yil 16 yanvarda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasidagi Do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnoma, 2004 yil 19 noyabr kuni imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stlik, o'zaro ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi shartnoma hamda 2007 yil 18 oktabrda imzolangan O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasidagi do'stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risidagi davlatlararo shartnoma ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarning fundamental tamoyillarini muvofiqlashtiruvchi asosiy hujjatlar hisoblanadi.

Yuqoridagi ikki tomonlama munosabatlardan tashqari, Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston umumintaqa miqyosidagi kelishuvlarni amalga oshirmoqda. Markaziy Osiyo doirasida o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishda 2005 yil oktabriga qadar faoliyat ko'rsatgan va shu davrdan Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilib ketgan Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti (MOHT) u yoki bu darajada rol o'ynadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari hamkorlikning turli sohalarida ularning faoliyatini tartibga soluvchi o'zaro kelishuvlarga erishdi. Xususan, 1998 yil 5-6 yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Ashxobodda bo'lib, u yerda Markaziy Osiyoning besh mustaqil davlati -O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlarining uchrashuvida ishtirok etdi. Uchrashuv yakuni bo'yicha qabul qilingan Ko'shma Bayonotda

tomonlar uzoq muddatli sheriklikka asoslangan va besh davlat milliy manfaatlariga javob beradigan do'stona, teng huquqli va o'zaro foydali munosabatlarni rivojlantirishni hamda mintaqada xavfsizlikni va barqarorlikni chuqurlashtirishga og'ishmay amal qilajaklarini tasdiqladilar.

2006 yil 2 sentabrda Astana shahrida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining norasmiy sammitida ishtirok etgan O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalari Prezidentlari uchrashuvida Markaziy Osiyo davlatlarining suv-energetika konsorsiumini barpo yetish mavzui kun tartibidagi asosiy masala bo'ldi. Ma'lumki, mintaqada suv zaxiralaridan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish, energetika sohasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan bunday konsorsiumni tashkil etish tashabbusini ilk bor O'zbekiston Prezidenti ilgari surgan.

Markaziy Osiyoda o'ziga xos taqsimlangan suv-energetika resurslaridan foydalanish, ularni muhofaza qilish masalalari 5 ta davlat rahbarlarining barcha uchrashuvlarida muhokama etilmoqda. Bu borada ham huquqiy asosdagi hujjatlar anchagina. Jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston orasida Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida hamkorlik to'g'risidagi shartnoma (17.06.1998 y.), Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston orasida "Davlatlararo manbalar suv resurslaridan foydalanishni birgalikda boshqarish va muhofaza qilish sohasida hamkorlik to'g'risida" shartnoma va nizom (Olma-Ota, 18.02.1992 y.), "Orol dengizi va Orolbo'yi muammosini hal qilish, Orol mintaqasini ekologik sog'lomlashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha birgalikdagi harakatlar to'g'risida" shartnoma (Qizil-O'rda, 26.03.1993 y.), "Orol va Orolbo'yi muammosini mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda hal etish" Konsepsiyasi (Toshkent, 13.07.1993 y.), Markaziy Osiyo hukumatlari va Rossiya Federatsiyasining "Orol dengizi havzasida yaqin 3-5 yilda mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hisobga olgan holda ekologik holatni yaxshilash bo'yicha aniq harakatlar dasturi" bo'yicha qarori (Nukus, 11.01.1994 y.), Orol dengizi havzasini barqaror rivojlantirish masalalari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari va xalqaro tashkilotlarning Nukus deklaratsiyasi (05.09.1995 y.), Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy hamkorligi to'g'risidagi Issiqko'l deklaratsiyasi (1995 y.), Olma-Ota deklaratsiyasi (28.09.1997 y.), BMTning Markaziy Osiyo iqtisodiyoti uchun maxsus dasturi (SPEC) to'g'risidagi Toshkent deklaratsiyasi (26.03.1998 y.), Ashxabod deklaratsiyasi (09.04.1999 y.), Markaziy Osiyo davlatlarining Toshkent bayonoti (28.12.2001 y.), Markaziy Osiyo davlatlarining Dushanbe deklaratsiyasi (06.10.2002 y.) va hokazolar [2].

XULOSA:

Umuman, O'zbekistonning mintaqa davlatlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalarini tartibga solishning huquqiy asoslari yaratildi, ko'pgina shartnomalar imzolanib, kelishuvlarga erishildi. Buni yuqoridagi misollarda ham ko'rish mumkin. Ammo, shularga qaramay, bu borada hal qilinishi, tartibga solinishi lozim bo'lgan hamkorlik sohalari talaygina. Ular orasida, ayniqsa mintaqaning gidro-energetika resurslari hamda

transport kommunikatsiyalaridan o'zaro manfaatli foydalanish masalalari hamon dolzarbligicha qolmoqda va o'z yechimini kutmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Лаумулин М.Т. "Центральная Азия в зарубежной и мировой геополитике". Том 1. "Центральная Азия и Ка-захстан в современной политологии": Научное издание. – Алматы: Казахстанский институт стратегических исследований при Президенте Республики Казахстан, 2006. – 704 с.

2.Александров А. Ароматные фрукты из Средней Азии пойдут на экспорт. /http://centralasiaonline.com/ru/articles/081219_fruit_bus/19/12/2008.

3. Namozov J.A. Suv resurslaridan foydalanish geografiyasi (Samarqand viloyati materiallari asosida). Monografiya. Chirchiq, 2022 yil.

4. Soliyev A., Arshiboeva L. Iqtisodiy geografiya nazariyasi va amaliyoti Masali, T., 1999 yil.

5. Tojiyeva Z.N. Xalq geografiyasi T., 2010 yil.

6. Petrova N.N. Geografiyani tabaqalashtirilgan holda o'qitish metodikasi maktab. - M.: Blik va Ko., 2000. - 336 b.

7. Kiev: Radyansk maktabi, 1983. - 192 p.

10. Komiljonovna, D. S. (2022). Darslarda statistik ma'lumotlardan foydalanish usullari Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Yevrosiyo tadqiqot byulleteni, 4, 60-62.

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARI:

1. <http://www.pedagog.uz>.

2. <http://www.un.org/esa/population/publikations/WUR2005>.

3. <http://www.usbektourism.us>.

4. <http://www.gretestcities.com>.

5. Scopus.com.